

MAKTABNING YUQORI SINIF O'QUVCHILARIGA LUG'AT VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O'RGATISHDA ONLAYN PLATFORMA “WAYGROUND” NING O'RNI

Xujamova Sadoqat Sobir qizi
O'qituvchi, 317-maktab

Annotatsiya: Bugungi raqamli davrda texnologiyalar ta'limning barcha sohalarini takomillashtirish uchun juda boy imkoniyatlarni taqdim etadi. Onlayn lug'atlar, til o'rganish ilovalari va interaktiv veb-saytlar o'quvchilarga frazeologik birliklar va so'zlarning keng doirasiga tezkor kirish imkonini beradi. Ushbu metodik tavsiya ingliz tilidagi yangi so'zlar va frazeologik birliklarni samarali o'qitishda interaktiv pedagogik texnologiyalardan birini o'rganishga qaratilgan. **Wayground** o'quvchilarning tushunishi va bilim darajasini darhol tekshirish hamda baholashga yordam berib, o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va maroqli qiladi. Ta'lim jarayoniga texnologiyalarni joriy etish orqali o'qituvchilar o'rganishni yanada interaktiv, dinamik va o'quvchilar uchun qulay holga keltirishlari mumkin.

Kalit so'zlar: onlayn platforma “Wayground”, texnologik vositalar, “Sudrab ol va joylashtir”, “Bo'sh joyni to'ldirish”, “Moslashtirish”, “Ochiq savol”, “O'sish tartibida joylashtirish”, “Variantlarni tegishli guruhlarga joylashtirish”.

Bugungi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan zamonda, ta'lim maskanlarida an'anaviy faoliyatlar va mashqlardan foydalanib o'tilgan darslar kutilgandek natija bermaydi. Chunki yosh avlod juda ham yangiliklarga intiluvchan bo'lib, ularni lol qoldirish har doim ham oson emas. Darsni yetarlicha mazmunli va qiziqarli qilib tashkil qilish uchun zamonaviy yondashuvlarni qo'llash esa anchayin kutilgan samara berib, ikkala tomon: o'qituvchi va o'quvchi uchun ham manfaatli bo'ladi. Hozirgi kunda dars davomida foydalanilib, o'quvchilarning qiziqishlarini yanada orttiradigan turli xil texnologiya va platformalar mavjud. Masalan: “Kahoot”, “Bamboozle”, “Wordwall”, “Edugames.uz”, “Wayground(quizziz) va boshqalar. Bunday zamonaviy uslublardan darsda foydalanish o'qituvchining izlanuvchanligi va ishbilarmonligidan darak beradi. Bu platformalar juda ko'plab xususiyatlarga ega bo'lib, tayyor test va viktorinalardan foydalanish imkoni beradi. Bir vaqtning o'zida ham o'rgatib, ham baholab, kelib chiqqan natijalar yuzasidan o'quvchilarni tahlil qilish ham mumkin. Ushbu platformalar qulayligi bilan birga, vaqtimizni ham tejaydi. O'z ustimizda ishlab, bilim va malakalarimizni oshirishimizga imkoniyat yaratadi.


Bu metodik tavsiya ana shunday samarali platformalardan biri bo'lmish “Wayground(dastlabki “Quizziz”) haqida bo'lib, uning qator xususiyatlarini tahlil qiladi va dars jarayonida qanday foydalanish mumkinligi xususida tavsiyalar beradi.

“Wayground” platformasi (1-rasm) aynan mana shunday interaktiv yondashuvlardan biri bo'lib, o'quvchilarning tushunish darajasini tekshirishga juda katta yordam beradi. Ushbu platforma sinfxonani faollashtirish, jalb etish va interaktiv qilish uchun ko'plab imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi sifatida biz “Wayground”da o'yinga asoslangan darslar yaratishimiz, formativ baholash o'tkazishimiz, jonli faoliyatlarni tashkil qilib yoki ularni uy vazifasi sifatida berib, batafsil natijalar hisobotidan foydalanishimiz va yana ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lishimiz mumkin.


“Wayground” o‘quvchilarni mukammallik sari qo‘llab-quvvatlash jarayonida vaqtni tejashga yordam beradigan qator xususiyatlarga ega. Undan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tajribasini yaratish uchun foydalanish mumkin. O‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarining ehtiyojlariga moslashtirilgan test va viktorinalar tuzishlari, shuningdek, ularning rivojlanishini kuzatib borishlari va qo‘shimcha yordam kerak bo‘lgan sohalarni aniqlashlari mumkin. Ushbu platforma ta‘lim sohasida inqilob yaratayotgan kuchli ta‘limiy vositadir. U rivojlanishda va takomillashishda davom etar ekan, kelgusi yillarda ta‘limga katta ta‘sir ko‘rsatishi shubhasiz. Bizning metodik tavsiyamiz platformada joriy etilgan 7 xil savol turini tahlil qiladi. Ular quyidagilar:

- **Drag and drop**–“Sudrab oling va joylashtiring” (2-rasm)
- **Reorder in ascending order**–“O‘shish tartibida joylashtiring” (3-rasm)
- **Clarify the options into the corresponding groups**–“Variantlarni tegishli guruhlariga ajrating” (4-rasm)
- **Answer questions based on below comprehension**–“Quyidagi matn asosida savollarga javob bering” (5-rasm)
- **Fill in the blank**–“Bo‘sh joyni to‘ldiring” (6-rasm)
- **Match the following**–“Moslashtiring” (7-rasm)
- **Open question: justify your answer with an explanation**–“Ochiq savol turi: Javobni shaxsiy fikringiz bilan ochib bering”(8-rasm).

1-rasm.



2-rasm



3-rasm


5-rasm

4-rasm

6-rasm



7-rasm



8-rasm

Ushbu innovatsion texnologiya o'quvchilarning qiziqishini jalb qilish va samarali o'qitishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi yoshlarning raqamli texnologiyalarga moslashganligi sababli, bunday vositalar ta'lim natijalarini yaxshilashda katta ahamiyat kasb etadi. Uni dars xususiyatlarining barchasini qamrab olgan holda, aniq maqsad asosida yo'naltirish, tizimlilik va izchillik bilan osondan murakkabga tomon yo'naltirilgan mashqlardan dars davomida foydalanish mumkin. Tavsiya etilayotgan mashq turlari tushunarli va aniq bo'lib, bolalarni darsda faol ishtirok etishlarini ta'minlab beradi. Platformaning rang-barang va interaktiv ekanligi ko'rgazmali qurollar o'rnini ham be'malol bosa oladi. Yana bir qulayligi shundan iboratki, baholash tizimi ham tez va haqqoniy amalga oshadi.

Bu platformada ro'yxatdan o'tish uchun internet qidiruv tizimiga "Wayground" deb qidirib saytga kiriladi. Unda ustoz sifatida yoki o'quvchi sifatida kirasizmi degan oyna chiqadi. Foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'limni tanlab, email manzili bilan ro'yxatdan o'tadi. Undan so'ng ishlash joyingizni belgilab, qaysi fandan va nechanchi sinflar uchun material kerakligini belgilab davom etish tugmasini bosasiz. Shundan so'ng sizga platformaning manbalari manbayi ochiladi. Undan o'zingiz qidirgan mavzuni "search" (qidiruv) joyiga yozib, topilgan ma'lumotlardan bema'lol foydalansangiz bo'ladi. (9-rasm) Tanlangan o'quv materialining yuqori o'ng tarafida real vaqtda, o'quvchilar bilan tashkil etish tugmasi bor "Play" (O'ynash) yoki uyga vazifa sifatida berish "Assign" tugmasi bor. Uyga vazifa qilib berganingizda tugash vaqti va test linkini belgilab chiqib ketasiz va o'quvchilaringiz turli vaqtlarda uylarida o'tirib, ishlab javobini jo'natish imkoniyatiga ega bo'lishingiz mumkin.

Bundan tashqari, ustozlar o'zlari ham bu platformada test va viktorinalar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ekraning chap tomon yuqori burchagida "Create" (yaratish) tugmasi bo'ladi. Shu tugma bosilganda "Assessment" (baholash), "Interactive video" (interaktiv video), "Flashcard" (tarqatma materiallar), "Lesson" (dars), va "Comprehension" (tushunish) bo'limlari chiqadi va ustozlar ehtiyojlariga qarab kerakli tugmani bosishadi va o'z sahifalarini "Wayground" platformasida yaratishadi.

Topshiriqlarni qo'lda terib kirgizish yoki o'zimizda bor materiallarni platformaga yuklash orqali ham yaratishimiz mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan savol turlaridan foydalanib, o'zimizning test yoki viktorinamizni yaratamiz va topshiriq yaratib bo'lingandan so'ng unga sarlavha va mos rasm tanlab, mana shu platforma foydalanuvchilari uchun yana bir manbani chop etamiz. Biz yaratgan ushbu testdan nafaqat o'zimiz balki butun dunyodan ustozlar, o'quvchilar bema'lol foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. (1-ilova)

ASOSIY QISM

Metodik tavsiyamizning asosiy qismida mashqlar tizimini ko'rib chiqamiz., Darsliklarimizdagi mashqlarni Eletron platformadagi topshiriqlarga quyidagicha moslab yaratishimiz mumkin.

• Drag and drop questions

1. Can you give me awith the homework?

head

hand

arm

2. It's Sunday please put yourand relax!

feet up

hair down

hands down

• Reorder in ascending order

playing/am/I/right now/tennis-
Arm/cost/a/leg/and/an-

• Clarify the options into the corresponding groups

Football, noodles, firefighter, soup, rugby, badminton, nurse, pizza, omelet, soccer, chef

Sport

Foods

Jobs

• Answer questions based on below comprehension

Listen, you can be an ostrich as a leader, and bury your head in the sand, or you can be forward-thinking and be scanning the environment constantly for threats or for opportunities to do better. *The Guardian (2016)*

A) type of bird B) a wild animal C) leader

• Fill in the blank

Can you please keep an.....on the baby while I take a shower?

• Open question: justify your answer with an explanation

What kind of activities do you do in winter vacation?

Answer_____

• Match the following

Word	Definition
1. Studio	A) A famous person, often in entertainment or sports
2. Concert ___	B) A place where music, films, or broadcasts are recorded
3. Production	C) A live performance of music before an audience
4. Celebrity ___	D) An event where many bands or singers perform, often outdoors
5. Music festival ___	E) Creating or making something, such as a film, song, or show
6. Music channel ___	F) A TV or online platform that broadcasts music videos or shows
7. Sound technician ___	G) A person responsible for controlling the sound at events
8. Live music	H) Music played in real time, not recorded

Qo'shimcha tarzda ushbu platformada a,b,c variantli test yaratish imkoniyati ham mavjud bo'lib, o'quvchilar o'z baholarini shu orqali to'ldirishlari yoki uyga vazifa sifatida bajarishlari mumkin.

- You can't do everything at once! you can't have your.....in every pie!
 a) nose b) toe c) finger
- she is constantly moving and shouting, she gets on my.....
 a) nerves b) head c) stress
- what a.....!!!he asked me for 300 bucks and he still owes me \$200
 a) cheek b) face c) head
- she found it hard tothat her ex was getting married
 a) swallow b) stomach c) think

“Wayground”dan foydalanishning eng katta afzalliklaridan yana biri shundaki, u o'quvchilarning faolligini oshiradi. Platforma o'yin ko'inishidagi formatdan foydalanadi, bu esa o'quvchilarga real vaqt rejimida viktorinalarda bir-biri bilan raqobatlashish imkonini beradi. Bunday format mavzuni takrorlashning qiziqarli va jalb etuvchi usuli bo'lib, o'quvchilarni ishtirok etishga va o'rganishga undaydi. Reyting jadvali (leaderboard) esa ayrim o'quvchilar uchun kuchli motivatsiya bo'lib xizmat qiladi hamda ayrim o'quvchilarni o'z xatolaridan saboq olishga undaydigan ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuningdek, viktorinalarni o'quvchilarning qiziqishlariga moslab sozlash mumkin, bu esa jarayonni yanada qiziqarli qiladi. Masalan, tarix fani o'qituvchisi mashhur janglar haqida viktorina tuzib, uni yanada interaktiv qilish uchun rasm va videolardan foydalanishi mumkin.

Wayground'dan foydalanishning yana bir afzalligi — o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bo'yicha darhol fikr-mulohaza (feedback) olish imkoniyatidir. Har bir savolga javob berilgach, platforma darhol natijani ko'rsatadi, ya'ni o'quvchi javobi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini biladi. Bunday tezkor fikr-mulohaza formativ baholash uchun juda muhim, chunki u o'qituvchiga o'quvchilardan olingan natijalar asosida o'qitish usullarini moslashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, “Wayground” o'qituvchilarga sinf ehtiyojlariga moslashtirilgan baholash topshiriqlarini yaratish imkonini beradi. Baholashlar o'quv dasturiga mos holda tuzilishi va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aks ettiruvchi savollarni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday moslashtirish formativ baholash uchun juda muhim,

chunki u o'quvchilarning bilimini aynan o'z sinfi sharoitiga mos ravishda baholash imkonini beradi.

O'qituvchilar "Wayground" orqali turli xil savol turlarini o'z ichiga olgan baholashlarni yaratishlari mumkin: ko'p variantli savollar, to'g'ri/noto'g'ri, hamda ochiq javobli savollar. Bu esa o'quvchilarning bilimini yanada keng qamrovli baholash imkonini yaratadi. Mening eng yoqtirgan funksiyalarimdan biri — keng qamrovli savollar bazasidir. Bu qisqa vaqt ichida test tuzish imkonini beradi.

Nihoyat, Wayground o'qituvchilarga o'quvchilarning rivojlanishi va natijalari bo'yicha ma'lumotlarga asoslangan tahliliy ma'lumotlarni taqdim etadi. Biz qaysi savollarga to'g'ri yoki noto'g'ri javob berilgani, shuningdek, o'quvchilar har bir savolga qancha vaqt sarflagani haqida batafsil hisobotlarni ko'rishimiz mumkin. Bu ma'lumotlar darsni moslashtirish va qo'shimcha yordam kerak bo'lgan o'quvchilarga ko'mak berish uchun xizmat qiladi. Wayground, shuningdek, butun sinfnings umumiy natijalari haqida ham tahliliy ma'lumot beradi, bu esa o'quvchilar qiynalayotgan mavzularni topish, bo'sh o'zlashtiruvchilarni aniqlash va o'qitish jarayonini shunga mos ravishda takomillashtirish imkonini yaratadi. Umuman olganda, "Wayground" formativ baholash uchun kuchli vosita bo'lib, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. U orqali biz o'qituvchi boshqaruvidagi hamda o'quvchi mustaqil bajaradigan viktorina va darslarni yaratishimiz mumkin. Wayground muharriri yordamida turli xil savol turlarini hamda media vositalarni (rasmlar, videolar, ovozli fayllar va audio yozuvlar) qo'shgan holda o'z testlarimizni osonlik bilan ishlab chiqishimiz mumkin. Shuningdek, Wayground kutubxonasiidan foydalanib, turli fanlar va sinf darajalarini qamrab olgan minglab tayyor viktorina va darslarni topishimiz mumkin. Biz ushbu testlarni o'qitish ehtiyojlarimizga moslashtirishimiz, tahrirlashimiz, savollarni o'z viktorinalarimizga import qilishimiz va ularni o'quvchilarimiz bilan ulashishimiz mumkin.(2-ilova)

Wayground kuchli baholash tizimini taqdim etadi. U darhol natijalarni ko'rsatadigan batafsil hisobotlarni yaratadi va bizga tahliliy ma'lumotlarning boy manbasini taqdim etadi. Bu ma'lumotlar tuzatish ishlari (remedial intervention)ni rejalashtirish va dars jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi. Birgina tugmani bosish orqali ushbu hisobotlarni ota-onalar bilan ulashib, ularni farzandlarining o'qishdagi yutuqlari haqida xabardor qilib borishimiz mumkin. Tajriba davomida qo'llanilmagan, ammo platformada mavjud bo'lgan boshqa savol turlari ham mavjud, masalan:

1. Chizish (Draw)
2. Ko'p variantli savollar (Multiple-choice questions)
3. Ochiq javobli savollar (Open-ended)
4. So'rovnomalar (Polls)
5. Audio javob (Audio Response)
6. Video javob (Video Response)
7. Ochiluvchi ro'yxat (Drop-Down)

"Wayground" dan sinfda foydalanishning bir nechta usullari mavjud. Quyida ayrim tavsiyalar keltirilgan:

-Platformadan foydalanishdan oldin uning foydalanuvchilari qatorida ro'yxatdan o'tib olish (Register) darkor. So'ngra, qisqa o'zimiz haqimizdagi ma'lumotlardan so'ng kasbimizni va platformadan foydalanish maqsadimizni so'raydi Unda "O'qituvchi" tugmasini bosib, cheksiz o'quv materiallaridan foydalanish huquqini qo'lga kiritamiz.

- So'ng darsimizning maqsadiga qarab tayyor manba izlashimiz yoki "Create"(yaratish) tugmasi orqali darsligimizga moslangan yangi topshiriq yaratib uni butun internet foydalanuvchilari uchun havola etsak bo'ladi.

Platformadan quyidagi maqsadlarda oqilona foydalanish mumkin:

-Uni formativ baholash vositasi sifatida qo'llash; O'tilgan mavzular bo'yicha bilimlarni tekshiruvchi test va o'yinlar yaratib, Hisobotlar (Reports) funksiyasi orqali har bir o'quvchining natijalarini tahlil qilishimiz va individual yondashuv asosida tuzatish ishlarini rejalashtiramiz. Hisobotlardagi ma'lumotlar qaysi mavzularda o'quvchilar qiynalayotganini aniqlashga va mos ravishda qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etishga yordam beradi.

-Boshqa o'qituvchilarni hamkorlikka taklif qilib, birgalikda test hamda topshiriqlar yaratishimiz;

-So'rovnomalardan foydalanib, o'quvchilarning fikr-mulohazalarini olishimiz va ularni kundalik o'qish jarayoniga oid qarorlar qabul qilishga jalb qilishimiz;

-O'quvchilarni o'zlari test yaratishga undash va ularni butun sinf uchun jonli tarzda o'tkazish imkonini berishimiz;

-Wayground'dan "exit ticket" (chiqish bileti) faoliyati sifatida foydalanib, dars yakunida o'zlashtirish darajasini tekshirish;

-Kitob tahlili va raqamli hikoya yaratish (digital storytelling) jarayonlarida Wayground o'yinlaridan foydalanish;

-Yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarning avvalgi bilimlarini aniqlash.

-Yangi mavzularni qiziqarli, interaktiv va jalb etuvchi usulda tanishtirish uchun "Wayground"dan foydalanish;

-Undan yozma ish yoki muhokama uchun turtki (prompt) sifatida foydalanish;

-O'quvchilarga berilgan testlarga o'zlariga ma'qul bo'lgan raqamli formatda javob berish imkonini yaratish orqali multimodal ta'limni kuchaytirish;

-O'quvchilardan Draw (chizish) funksiyasidan foydalanib, javoblariga oid vizual tasvirlar (rasmlar) chizishni so'rashimiz mumkin.

XULOSA

Wayground kutubxonasi boshqa o'qituvchilar va ta'lim mutaxassislari tomonidan yaratilgan minglab tayyor viktorina va darslarni o'z ichiga oladi. Ushbu resurslar turli toifalarga ajratilgan, jumladan: "Ice-breakers" (muzyorar) va "Bell ringers"(qo'ng'iroq chaluvchilar), matematika, ingliz tili va adabiyoti, ijtimoiy fanlar, xorijiy tillar, tabiiy fanlar, kompyuter savodxonligi va boshqa ko'plab yo'nalishlar. Shuningdek, saytning qidiruv oynasi orqali kerakli test va darslarni izlab topish mumkin.

Qulay va tushunarli test yaratish interfeysi, keng qamrovli tayyor resurslar kutubxonasi hamda chuqur tahliliy ma'lumotlar tizimi bilan "Wayground" o'quvchilar bilim darajasini aniq baholash va ma'lumotlarni amaliy xulosalarga aylantirish imkonini beradi. Biz real vaqt rejimida sinfda qiziqarli "aqliy bellashuvlar" tashkil qilmoqchi bo'lamizmi yoki o'quvchilar mustaqil va o'z tezligida bajarishi mumkin bo'lgan uy vazifalarini bermoqchimiz — "Wayground" ta'lim ehtiyojlarimiz oqimiga moslasha oladi. Platformaning moslashuvchanligi hamkorlik imkoniyatlarini ham kengaytiradi: u o'qituvchilarga birgalikda testlar yaratish imkonini beradi hamda o'quvchilarni nafaqat tayyor kontentni o'zlashtirishga, balki uni yaratishda ham faol ishtirok etishga undaydi.

1. Elizabeth I. Dorssom. Wayground: From Quizzes to a Full-Fledged Learning Hub” Published in the *Journal of Political Science Education* (2026).
2. Laura Sukiasyan (Armenia). Understanding Linguistic Patterns in Popular Media. (2026)
3. EFL learners’ motivation in a gamified formative assessment: The case of Quizizz” Journal: *Education and Information Technologies* (2024)
4. Syarif Hidayat Nasir. Ashabul Kahfi Susanto. Gamified Vocabulary Learning through Quizizz: An Experimental Study on EFL Students’ Lexical Development in Indonesia
5. Derya Orhan Göksün ^a, Gülden Gürsoy (2019) Comparing success and engagement in gamified learning experiences via Kahoot and Quizizz. *Computers & Education*

Foydalanilgan internet materiallar:

1. <https://youtu.be/wjkhOb7jpvw?si=GBEjW7-LEvAUVi9w>